

## BO`LAJAK TASVIRIY SAN`AT MUALLIMLARINI KASBGA YO`NALTIRISHDA MANZARA KOMPOZITSIYASINING O`ZIGA XOSLIGI

**Talipov Nozim Xamidovich**

*Nizomiy nomidagi TDPU, Tasviriy san`at kafedrasida dotsenti*

**Sultanova Dilrabo Tulkunovna**

*Nizomiy nomidagi TDPU, Tasviriy san`at va amaliy bezak san`ati mutaxassisligi 1-kurs magistratura talabasi*

### **Annotatsiya**

Maqolada manzara kompozitsiyasini ishlash bo'yicha asosiy amaliy tavsiyalar berilgan, mazkur yo'nalishda qo'llaniladigan individual metodlarning xususiyatlari tushuntirilgan.

**Tayanch tushunchalar:** manzara, ranglavha, komponovka, nisbatlarni aniqlash, kompozitsiya, perspektiva qonunlari, rang va tus munosabatlari, konstruktiv qurilish, kolorit, plener.

Bugungi kunda jahonda bo'layotgan globallashuv va ta'lim integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. Xususan, malakali mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim mezon sifatida kasbga yo'naltirilgan vazifalar bilan bog'liq sifatlarni belgilash, bitiruvchining kasbiy kompetentlik sifatlarini muhim sifatlar qatoriga kiritish, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash holatini o'rganish, ularning ixtisoslik sohalari bo'yicha kasbiy kompetentligini tadqiq etish, pedagogik tashxislashning innovatsion metodlarini izlab topish va ulardan unumli, samarali foydalanish hamda amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali integratsion ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohaslariga yo'naltirilgan qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan oliy ta'lim sifatini ta'minlashdagi ijtimoiy rolini oshirish, kasbiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, kompetentsiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish asosida talabalarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatini izohlaydi.

Manzara - tasviriy san'atning tabiat ko'rinishini aks ettiradigan san'at asaridir. Unda real, hayolan ko'z oldimizga keltirilgan joylar, shahar ko'rinishlari va hokazolar tasvirlanadi. Manzara tasviriy san'atning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy va maishiy asarlarda ham vosita-fon sifatida muhim rol o'ynaydi. Ona tabiat qo'ynida bo'lish ijodiy fikrlar tug'ilishi va ruhanishni o'zgarmas manbai hisoblanadi. Rassom biror bir joyni tasvirlashda o'sha muhitni chuqur o'rganmay, tahlil etmay hayolan tasvirlasa bu ish soxta chiqib tomoshabinni o'ziga jalb eta olmaydi. Muntazam ijod etish rassomni nozik sezishga va tabiatni ma'lum holatini rangli va tusli xususiyatlarini to'laqonli yetkazishga o'rgatadi. Ko'zning moslashuvi deb ataluvchi (yorug'likka ko'zning sezuvchanligini ko'tarilishi va pasayishi) natura (tabiat) har xil yoritilishda turli taassurotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, quyosh nurlarida kuzatilgan tabiat to'satdan bulutlar bilan qoplanganda barcha ranglar o'zgarib to'qroq bo'lib ko'rinadi.

Manzara etyudlarini bajarish jarayonida taqqoslash va munosabatlar bilan ishlayotganda naturani yaxlit ko'rish kerak, aks holda naturaning tus va rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash va etyudning jozibador ko'rinishiga erishish mumkin emas. Ochiq havoda (plener) kichkina-etyudlarni rangda ishlashda avvalo asosiy rang munosabatlarini topa olish muhimdir. Buning uchun naturaning old ko'rinishidagi qarama-qarshi (tusli va rangli) dog'larni uzoqdagiga nisbatan taqqoslash kerak. Kichik o'lchamdagi etyudlarda mayda

bo'laklarga e'tibor berilmaydi asosan katta rang munosabatlarida yoziladi. Manzara etyudlarini bajarishda uncha murakkab bo'lmagan syujetlar tanlanadi (masalan uy bilan hovlining bir bo'lagi). Keyinchalik vazifani murakkablashtirib ochiq kenglikdagi manzarani tasvirlashga o'tiladi. Bunday etyudlarda havo perspektivasidagi, masalan manzaradagi rang och-to'qlik va to'yinganligini turli ko'rinishlaridagi hodisalarga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bunga esa manzaraning barcha ko'rinishlarini taqqoslash yo'li bilan yaxlit idrok qilish orqali erishiladi.

«...Etyudni shunday tasvirlash kerakki, birdan yer bilan suvni osmonga nisbatan tus munosabatlarini anglab mohiyatini ilg'ab olish kerak» - deydi taniqli ijodkor M.Nabiev o'z shogirdlariga. Uning o'zi etyudlarda asosiy rang munosabatlarini qurishni mohir ustasi bo'lgan.

Qisqa muddatli etyudlarni bajarish maqsadi turlicha bo'lishi mumkin: bir holatda etyud uzoq davomli ish oldidan bajariladi va unda naturadagi rang munosabatlari tahlil qilib o'rganiladi hamda uning koloritiga hos birinchi taassurotlar belgilanadi, boshqa holda esa – shakllarni qo'shimcha va puxtaroq o'rganish maqsadida uning mayda bo'laklari (inson qo'lining etyudi manzaraning ayrim bo'laklari) aniqlanadi. Rangtasvirning ayrim qonuniyatlarini puxta o'rganish uchun dala amaliyotida etyudlar bajariladi: umumiy yoritganlik holati kolorit yaxlitligi va h.k.. Manzaraning etyudini tasvirlashda har doim yorug'lik tez-tez o'zgarib turadi. Hattoki quyosh bulutlar ortida bo'lsa ham u manzaraga bevosita ta'sir qiladiki, seansni boshlanishida va so'nggida manzaradagi yorug'lik holati doim turlicha bo'ladi.

«Umumiylikni izlang, - deb aytgan I. Levitan, - Rangtasvir qaror emas, u tabiatni rangtasvir ashyolarida ifodalaydi. Asarda mayda-chuyda, ikir-chikirlar bilan chalg'ib qolmasdan, umumiy tusni qidiring».<sup>1</sup>

Taniqli ijodkorlar O'.Tansiqboev, R.Ahmedov, A.Mirzaev, I. Levitan, N. Korovinlar yagona umumiy bo'yoq surtmasi yordamida etyuddagi o't-o'lanlarni, bulutlarni va daraxtlarni mohirlik bilan tasvirlaganki ularning moddiy o'ziga xosligi, rangdorligi, jozibadorligi ko'pchilikni hozirgacha hayratga soladi. Buning sababi, ularning etyudlaridagi ranglar yoritilishining umumiy holati mezonlari to'g'ri hisobga olinib yaratilganligidandir.

Rangtasvir ishlash jarayonida manzara ob'ektlari va narsalarni yaxlit ko'rib turish muhim. Amaliy ishlash vaqtida birinchi ko'rinishni yorqin ranglarda keyingi ko'rinishlarni esa xiraroq ishlash kerak. Faqat yaxlit ko'rish orqali manzaraning perspektiv o'lchamlarini, ularning turli ko'rinishdagi rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash hamda tasvirlashga erishish mumkin.

Naturaning rang munosabatlarini ifodalayotganda ranglar birdamligini ham nazarda tutish kerak, u esa yoritilish spektr tizimini yaratadi. Ertalab naturada oltinsimon pushti bo'yoqlar, kechqurun esa sariq zarg'aldoq, bulutli kunda esa – neytral kumushsimon ranglar ustun keladi. O'rmonda yashil issiq ranglar doim ustun turadi. Oydin kechada kulrang-havorang va yashil ranglar kuzatiladi.

Naturadan ishlash jarayonida rassom rang munosabatlarini mutanosibligi, umumiy rang va tus holatining vazminligini kuzatib qolmay, rang koloriti va ranglar garmoniyasini yaxlitligiga erishishi kerak. Talabalarni tabiat va san'atdagi betakror go'zalliklarni ko'ra bilishi, ona-yurtga bo'lgan cheksiz muhabbatini orttirish orqali ularda manzarani tasvirlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni anglashi, tushunishi va uning faol ishtirokchisiga aylanishi kabi muammolar o'z yechimini topishi zarur. Manzara ishlash jarayonida talabalar uning oddiy qonuniyatlarini (chiziqli va havo perspektivasi, kolorit, kompozitsiya qonunlari) ham nazariy ham amaliy o'zlashtirib boradilar. SHu tarzda talabalarda yurtimiz tabiatiga, uning betakror qir-adirlari-yu, bog'u-roq'lari, hayvonot dunyosi va manzaralariga bo'lgan muhabbat hissi sekin asta uyg'onib boradi.

Manzara - tasviriy san'atning tabiat ko'rinishini aks ettiradigan san'at asaridir. Unda haqqoniy, hayolan ko'z oldimizga keltirilgan joylar, shahar ko'rinishlari va hokazolar tasvirlanadi. Manzara tasviriy san'atning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy va maishiy asarlarda ham vosita fon sifatida muhim rol o'ynaydi.

Ayniqsa, talabalarni tasviriy san'atga bo'lgan kasbiy qiziqishlarini shakllantirishda manzara janri asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Dastavval, manzara mustaqil janr sifatida qadimgi Xitoyning o'rta asrlar tasviriy san'atida muhim o'rin tutadi. Yevropada esa manzara janri XVI-XVII asrlarda yaxshi rivojlangan bo'lsa, Rossiyada manzara janri XVIII asrga kelib rivojlandi. Xususan, Moskva, Sankt-Peterburg arxitektura yodgorliklari rassom F.E.Alekseev tomonidan yuksak mahorat bilan tasvirlangan.

<sup>1</sup> Школа изобразительного искусства Т.Б, М., 1962, с. 139.

XIX asrning II yarmida realistik manzara janri gurkirab o'sdi. Bu davrda I.S.Hishkin, A.Savrasov, I.Levitan, V.Mashkov va boshqa rassomlar salmoqli ijod qilganlar.

O'rta SHarq san'ati, jumladan Xirotda, O'rta Osiyo miniatyura san'atida manzara janri yuksak darajada namoyon bo'lgan. Ayniqsa, Kamoliddin Behzodning mo'jaz asarlarida manzara tabiat ko'rinishi yuksak mahorat bilan ishlangan.

O'zbek manzara janrining haqiqiy rivojlanishi XX asrga to'g'ri keladi. Bu davrda dastgoh san'atida manzaraning nodir namunalari yaratildi. SHu davrda P.Benkov, O'.Tansiqboev, N.Karaxan, A.Mirsoatov va boshqa rassomlar o'z san'at asarlarida masalan, O'.Tansiqboevning "Issiq ko'l", "Ona o'lka", "Qayraqqum suv ombori", N.Qoraxonning "Nanay yo'li", "Sijjakda bahor", R.Temurovning Samarqand arxitektura manzara asarlarida tabiatga muhabbat va go'zallik sirlarini ochishda shakllantirdilar. Hozirgi vaqtga kelib ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, jumladan A.Nuriddinov, O.Qozoqov, A.Mo'minovlar tabiatni madh etuvchi maftunkor manzaralarni chizib kelmoqdalar.

Manzaraning bir qancha turlari mavjud: shahar (arxitektura), qishloq (tog'lar), sanoat (zavod, fabrika me'moriy qurilishlari) manzara janrlari kiradi. Bularning har bir negizida o'zgacha mazmun, g'oya yotadi. Masalan, shahar manzarasida, shahar hayoti, baland imoratlar, transport vositalari, oromgoh bog'lar, yer osti o'tish joylari, qishloq manzarasida, bepoyon kenglik, qoya toshlar, yaylovlar, tog'lar, o'simliklar, jilvakor suvlar, ko'priklar o'quvchi yoshlarni o'ziga jalb qilishi tabiiydir. Lirik manzarada, tabiatdagi fasllar "Erta tong", "Bahor", "Oppoq qor", "Oltin kuz" kabi manzaralar tabiatning nozik, sokin go'zalligini uning uyg'onish holatini aks ettiruvchi, insonga quvonch baxsh etuvchi asarlarni ko'z oldimizga keltiramiz. Voqelik tasviri va inson atrofini o'rab olgan tabiat ko'rinishi manzarada o'z aksini topadi. SHu ma'noda manzara his-hayajonli ko'rinish va g'oyaviy mazmun kasb etadi [1. -28].

Talabalarni tasviriy san'atga kasbiy qiziqishlarini shakllantirishda manzara janri alohida ahamiyatga ega. Chunki tabiat qo'yniga chiqqan har bir talaba tabiatni o'zi bilganicha tasvirlashga intiladi. Tasviriy san'atda manzara ishlash jarayoni quyidagi amaliy mashg'ulotlar bajarilishini talab etadi:

talabalarni manzara chizish jarayoniga bog'liq bo'lgan barcha kuzatishlari ulardagi boshlang'ich tasavvurlarini shakllantiradi;

manzara ishlashda ufq chizig'i, ko'rish nuqtasi, ko'rish maydoni, havo perspektivasi, surat tekisligi, yorug'-soya qonuniyatlarini o'zlashtiradi.

SHu bilan bir qatorda tasvirlanayotgan ob'ektdagi shox-shabba va dov-daraxtlarning shakllari, hayvonot olamining anatomik tuzilishi xususiyatlari, tog'u-toshlarning ko'rinishlarini haqqoniy obrazlarda tasvirlashni o'rganadilar. Bunday mavzuli tasvirlarni chizishda yilning har bir fasllarida turli materiallardan: albom, rangli qog'oz, akvarel bo'yog'i, oddiy qora qalam, rangli qalamlar, flomaster, rangli bo'rlardan foydalanib amalga oshiriladi.

Tasviriy san'atda manzarani talabalarga jonli yetkaza bilish uchun, ularni darsdan tashqari bo'sh vaqtlarida manzara chizish uchun nihoyatda qiziqarli syujet joyini tanlay bilishga o'rgatish alohida ahamiyatga ega. Manzaradagi asosiy narsalarni farqlagan holda avvaliga qog'ozga joylashtirish, keyin esa perspektivadagi ufq chizig'i, ko'rish nuqtasi, ranglar bilan ishlash, yorug'-soyalarni ajrata bilish, manzara ishlash jarayonini to'g'ri tanlay olgan holda ifodalash, qog'ozga manzara ko'rinishini joylashtirish, manzaradagi daraxtlar va o'simliklarga yorug'likni qanday tushishi hamda tabiatni erta tongdagi ranglarining tiniqligini tasvirlay olish lozim. Manzara ishlashda perspektiva va to'g'ri rang tanlash o'quvchilarning ijodiy tafakkurini hamda tasavvurining boyishiga olib keladi. Tabiat manzarasidagi kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bizni o'rab olgan go'zal tabiatni aks ettirishga bo'lgan urinishlar o'quvchilarda individual xususiyatlarni shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, ufq chizig'ini to'g'ri tanlash, ranglarni to'g'ri bo'yash va h.k.lar.

Akvarelda ishlash talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllanishiga, rangni idrok qilish, badiiy didini tarbiyalashga hamda hajm va fazoviy kenglikni tasavvur qilishga yordam beradi. Talabalarni manzara chizishga o'rgatishda, ularni hovli yoki bog'larga olib chiqish kerak. Ochiq havoda (plener) rasm chizish xonada chizishdan keskin farq qiladi. Tabiat qo'yniga chiqilganda talaba manzarani tasvirlash bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Bu muammo natijasida perspektivani, ya'ni ko'rinib turgan manzarani to'g'ri, yaxlit tasvirlashda havo perspektivasini ko'rsatib berish murakkabligi, rang tanlash qiziqarli motiv va kompozitsiyani topish mahoratini kuzatish mumkin.

Shunday qilib talaba yoshlarni tasviriy san'atga kasbiy qiziqishlarini shakllantirish uchun dastavval manzara janrini tanlash ko'zlangan maqsadga tezroq erishish imkonini beradi. Manzara janrini tasavvur qilishda uning rivojlanishi, tarixi ham alohida ahamiyatga ega. Talabalarga tabiat go'zalligini uning maftunkor jihatlarini tasvirlashni o'rgatish qanchalik maroqli ekanligini his qilish mumkin.

Ayniqsa, manzara ishlash jarayonini amaliy mashg'ulotlar paytida bajarish maqsadga muvofiqdir. Talabalar manzara ishlashda ufq chizig'i, ko'rish nuqtasi, ko'rish maydoni, havo perspektivasi, surat tekisligi, yorug'-soya qonuniyatlarini o'zlashtirishlari shart. SHuning uchun tasviriy san'at janrlarini talabalarga jonli yetkazish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash joiz. Xususan, manzaradagi eng asosiy narsalarni farqlash, ularni avvalo qog'ozga joylashtirish undan keyingi jarayonlar ketma-ketligini esda saqlash lozim. Manzarani yaxlit ko'rish va naturaning hamma bo'laklarini barobar solishtirish qobiliyatini shakllantirish – bu rangtasvir ta'limida muhim masala. Agar havaskor rassom bu masalalarni o'zida mujassamlashtirmasa, kelgusi ishlarida ijobiy natijalarga erisha olmaydi. Aynan bir butun ko'ra bilishlik va munosabatlar bilan ishlay olish eng usta rassomni xavaskordan ajratib turadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.G'.M.Abdurahmonov «Kompozitsiya asoslari». -T.,- 2003.
- 2.B. Boymetov «Qalamtasvir». – T., Musiqa, 2006 y.
- 3.N. Tolipov, S. Abdirasilov, N. Oripova «Rangtasvir». -T., O'zbekiston, 2006.
- 4.O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.-704 b. T.5. B-444.
- 5.Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi.-T.: Fan, 1997. -160 b.
- 6.Talipov Nigmatjon Nozimovich, Yuldasheva Nilufar Ibrahimovna, & Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2020). Development Of Student's Creative Abilities In The Fine Arts In The Higher Education System . The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(07), 232–238. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue07-30>
- 7.Khamidovich, T. N., Nozimovich, T. N., Ibrohimovna, Y. N., Ravshanovich, J. R., & Kholmuratovich, M. K. (2020). DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE ABILITIES THROUGH TEACHING. Journal of critical reviews, 7(6), 227-230.
- 8.Xalilov, R. (2021). IMPORTANT FACTORS FOR TEACHING STUDENTS TO WORK ON LANDSCAPE COMPOSITION. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.10>
- 9.Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12>
- 10.Talipov, N. X., & Aliev, N. S. (2021). The importance of perspective in teaching art to future fine arts teachers. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(2), 97-103.
- 11.Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). Проблема исторического жанра в изобразительном искусстве: взгляд на творческую школу художника Малика Набиева. Общество и инновации, 2(4/S), 607–613. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp607-613>
- 12.Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. Spanish Journal of Society and Sustainability, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
- 13.Jabbarov, R.. (2021). Уникальное направление, вдохновленное творчеством Камолиддина Бехзода, великого миниатюриста Восточного Возрождения. Общество и инновации, 2(5/S), 59–67. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>
- 14.Ravshanovich, J. R. (2021). Rangtasvir Taraqqiyotining Ustuvor Yo'nalishlari. Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журналы, 1(6), 137-148.
- 15.Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич, & Назирбекова Шахноза Ботировна (2017). Компьютеризация и информатизация художественно- практические занятия в обучении студентов. Инновации в науке, (12 (73)), 21-23.
- 16.Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич (2016). Художественные традиции как основа профессионального мастерства. Наука и образование сегодня, (2 (3)), 63-69.

17. Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич, Назирбекова Шахноза Ботировна, & Махкамova Саодат Бахтияровна (2016). Художественно-культурные традиции узбекского народного искусства на уроках изобразительного искусства. *Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии*, (11 (68)), 32-42.
18. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
19. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 142–156. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23>
20. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>
21. Талипов, Н. Х. (2020). КАК СОЗДАЕТСЯ КОМПОЗИЦИЯ НАТЮРМОРТА. In *АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИСКУССТВА: ИСТОРИЯ, ТЕОРИЯ, МЕТОДИКА* (pp. 124-127).
22. Yusubali o'g'li, Y. S. (2021). XVI–XVII Asrlar G'arbiy Yevropa Tasviriy San'atida Maishiy Janring Rivojlanishi. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журналы*, 1(6), 191-197.
23. Талипов, Н. Х. (2022). ТАСВИРИЙ САНЪАТ МАШҒУЛОТЛАРИДА ПЕРСПЕКТИВНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журналы*, 2(1), 27-36.
24. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). ТАЛАБАЛАРНИ БАДИИЙ ТАЪЛИМ ОРҚАЛИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Збірник наукових праць ЛОГОС*.
25. Talipov Nozim Khamidovich, & Kholmurodova Fotima, Kholmurodova Zukhra. (2022). FEATURES OF ART EDUCATION FOR FUTURE FINE ART TEACHERS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(01), 33–39. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-01-06>
26. Nazirbekova, S., Talipov, N., & Jabbarov, R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(2), 364-367. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v15.2.1192>
27. Talipov, N. (2019). Artistic Analysis of Portraits and Other Genres. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 317-320. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1432>
28. Нигматжон Нозимович Талипов (2021). АМАЛИЙ САНЪАТ АСАРЛАРИГА КОМПОЗИЦИЯ ТУЗИШ ҚОНУН-ҚОИДАЛАРИ. *Scientific progress*, 1 (6), 309-316.
29. Абдирасилов, С. Ф., Толипов, Н. Х., & Толипов, Н. Н. (2017). Эффективность исторического подхода в художественном обучении. *Молодой ученый*, (20), 417-421.
30. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE ARTS. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03>
31. Ahmedov, M.-U., & Xolmatova, F. (2021). TEACHING STUDENTS TO DRAW ELEMENTS OF PATTERNS IN WOOD CARVING CIRCLES. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17>
32. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст: непосредственный // *Молодой ученый*. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>, 2, No. 1).
33. Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA MANZARA KOMPOZITSIYASINI O'QITISH ORQALI TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 145–153. Retrieved from <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/335>